



IELTS IMTIHONIGA TAYYORGARLIKDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINI TANLASH VA ULARNING TAVSIFIY TAHLILI

Mirzayeva Zarnigor Odilsher qizi

Andijon davlat chet tillari institute 1-kurs tayanch doktorantura talabasi

+998905735059 mirzayevazarnigor054@gmail.com

orcid:0009-0006-2408-4431

Annotatsiya. Ushbu maqola IELTS imtihoniga tayyorgarlikda sun'iy intellekt vositalarini tanlash va ularni tavsifiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi IELTS imtihoniga tayyorgarlikda asosan nutqiy-ijodiy ko'nikmalar (productive skills)ni rivojlantirishga ko'mak beradigan SI vositalarini aniqlash va qo'llanilishini tahlil qilishdan iborat. Muallif gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda SI vositalarini qanday ishlatish mumkinligini aniqlashga harakat qilib, o'z tadqiqotida empirik metoddan foydalangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, SI vositalari yozuv va grammatika ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi va uning fikr-mulohazasi o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi. Talabalar vaqtni boshqarishda va murakkab jumlar tuzishda qiynalishadi, shu muammolarni SI vositalari qisqa muddatda kamaytirishga yordam berishi aniqlandi. Ammo chuqur va tahliliy baholashda insoniy fikr zarur bo'lib qolishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt (SI), IELTS imtihoniga tayyorgarlik, avtomatlashtirilgan hulosa, tilni baholash, kompyuter yordamida til o'rganish (CALL).

Annotation: This article is dedicated to the selection and descriptive analysis of artificial intelligence (AI) tools in preparation for the IELTS exam. The aim of the study is to identify and analyze the use of AI tools that primarily support the development of productive skills during IELTS preparation. The author attempts to determine how AI tools can be used to enhance speaking and writing skills, employing an empirical methodology in the research. The analysis results show that AI tools significantly improve writing and grammar skills, and their feedback increases students' motivation. It was found that students often struggle with time management and constructing complex sentences, and AI tools help reduce these difficulties in a short period of time. However, the study also concludes that human judgment remains essential for deep and analytical evaluation.

Keywords: Artificial Intelligence (AI), IELTS preparation, automated feedback, language assessment, computer-assisted language learning (CALL).

So'ngi yillarda Sun'iy intellekt (SI) ta'lim sohasiga tez sur'atlar bilan kirib keldi va til o'rganishda ham ushbu vositalardan foydalanish sezilarli darajada ortib bormoqda. Biroq, SI vositalarining IELTS kabi yirik xalqaro imtihonlarga tayyorgarlik jarayonidagi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

imkoniyatlari yetarlicha o'rganilmagan. Hozirgi vaqtda avtomatlashtirilgan yozma nutqni baholash dasturlari, nutqni rivojlantirish ilovalari hamda adaptiv ta'lim platformalari kabi turli SI vositalari o'quvchilarga taqdim etilgan, lekin qaysi vosita aynan qaysi ko'nikma uchun samaliroq ekani bo'yicha tizimli ko'rsatmalar mavjud emas. Bu esa bir qancha muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, talabgorlar ko'pincha mos kelmaydigan ilovalarda vaqt va mablag'larini sarflab qo'yishlari, o'qituvchilar esa IELTS tayyorlov kurslariga SI vositalarini samarali integratsiya qilish uchun aniq metodik asosga ega emasligi. Shuningdek, ushbu vositalarning qanday ishlashi, didaktik afzalliklari va mavjud cheklovlari haqida batafsil tavsifiy tahlil deyarli yo'qligi sababli ushbu sohada keng qamrovli tadqiqot otkazish zarurati borligini anglatadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan sun'iy intellekt vositalarini tanlash va ularni tavsifiy jihatdan o'rganishdir. Tadqiqot jarayonida asosan nutqiy-ijodiy (productive) va nutqni qabul qilish (receptive skills) ko'nikmalarini rivojlantiruvchi SI vositalariga e'tibor qaratiladi, ularning kuchli va zaif tomonlari o'rganiladi hamda o'qituvchi va o'quvchilar uchun SI vositalaridan oqilona foydalanish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ilmiy-nazariy va metodik poydevor yaratish ko'zda tutiladi.

Sun'iy intellekt vositalarining chet tilini o'qitish va IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayonida qo'llanilishi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilib kelinmoqda. SI asosidagi avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza tizimlari (automated feedback systems) talabalar yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko'rilmogda. Ular grammatik va leksik xatolarni tezkor aniqlash, individual tavsiyalar berish hamda o'quvchilarga mustaqil mashq qilish imkoniyatini yaratadi [1]; [2]. Shu orqali SI vositalari nafaqat bilim darajasini, balki talabalar motivatsiyasini ham oshirishi qayd etilgan.

Shu bilan birga, tadqiqotlarda SI vositalarining ayrim cheklovlari ham aniqlangan. Avtomatlashtirilgan tizimlar matnning izchilligi, misollarni rivojlantirish va madaniyatlararo pragmatik nuanslarni baholashda o'qituvchi fikr-mulohazasi darajasida samarali emas [8]; [5]. Shuning uchun olimlar SI va inson fikr mulohazasini integratsiya qilishni eng to'g'ri yondashuv sifatida tavsiya etadilar [4]. Bunday uyg'unlashuv IELTS imtihoniga tayyorgarlik jarayonida talabalar uchun yanada puxta va muvozanatli natija beradi.

Ushbu mavzu yuzasidan ma'lum bir izlanishlar olib borilgan bo'lib, natijalarga ko'ra:

Birinchidan, SI vositalari yozuv va grammatika ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Masalan, Eronlik talabalar ustida o'tkazilgan tadqiqotda AI platformalari IELTS yozuv mashqlarida xatolarni qisqartirgan va o'quvchilarga mustaqil mashq qilish imkoniyatini bergan [2]; [3].

Ikkinchidan, SI fikr-mulohazasi o'quvchilar motivatsiyasini oshiradi. Talabalar tezkor javob olish va xatolarini darhol tuzatish imkoniyatini ijobiy baholashgan [1].





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Uchinchidan, AI vositalari ba'zi cheklovlarga ega: ular murakkab jumalarni tuzish, argumentlarni rivojlantirish va pragmatik jihatlarni baholashda zaifliklarga ega. Masalan, Wang va Brown tadqiqotida SI grammatik tuzatishlarda samarali bo'lsa-da, matnning umumiy izchilligi va mazmunida inson fikr-mulohazasi kuchliroq natija bergan.

To'rtinchidan, IELTS yozuv topshiriqlarida talabalar eng ko'p murakkab jumalar tuzishda va vaqtni boshqarishda qiynalishadi. Bu muammolarni SI vositalari qisqa muddatda kamaytirishga yordam beradi, chunki ular ko'plab mashq imkoniyatlarini taqdim etadi [3].

Beshinchidan, meta-tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompyuter yordamida berilgan fikr tezkorlik va masshtablash imkoniyati bilan ustunlikka ega. Ammo chuqur va tahliliy baholashda insoniy fikr zarur bo'lib qoladi [9]; [10].

Oltinchidan, tarixiy tajribalar ham buni tasdiqlaydi: raqamli baholash vositalari o'quvchilarga xatolarini anglashda yordam bergan, lekin o'qituvchi nazoratini to'liq almashtira olmagan [6]; [7].

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotlar shuni anglatadiki, IELTS tayyorgarligi jarayonida SI vositalaridan foydalanish o'quvchilarga ancha qulaylik yaratadi, biroq ular hech qachon inson o'qituvchisining chuqur tahliliy, ijodiy va tarbiyaviy yondashuvini to'liq almashtira olmaydi. Shu sababli, kelajakdagi ta'lim amaliyotida AI texnologiyalarini pedagogik maqsadlarga moslashtirish, ularni o'qituvchi nazorati bilan uyg'unlashtirish va ta'lim jarayonini tenglik hamda sifat tamoyillariga asoslangan holda tashkil etish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zhang, S., Hyland, K. Learner perceptions of AI-generated feedback in EFL writing: Benefits, limitations, and implications // Journal of English for Academic Purposes. – 2020.
2. Zarei, A. A., Hashemnezhad, H. The role of AI tools in IELTS preparation: Evidence from Iranian EFL learners // Journal of Language Teaching and Research. – 2020. – T. 11, № 6. – C. 1023–1030.
3. Zarei, G. R., Sadighi, F. Challenges of IELTS writing tasks: Insights from Iranian learners // Iranian Journal of Applied Linguistics. – 2011. – T. 14, № 2. – C. 71–89.
4. Xie, Y., Chu, H. C., Hwang, G. J., Wang, H. P. The effects of AI-based and human feedback in a blended learning environment: A comparative study // Computers & Education. – 2019. – T. 142.
5. Wilson, A. M., Roscoe, R. D. AI in educational feedback: A review of applications in writing and language learning // Computers & Education. – 2020. – T. 148.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

6. Ware, P., Warschauer, M. Comparing digital feedback tools in second language writing // *Language Learning & Technology*. – 2006. – T. 10, № 3. – C. 1–20.
7. Warschauer, M., Grimes, D. Automated feedback and human feedback in writing instruction // *Language Learning & Technology*. – 2008. – T. 12, № 3. – C. 63–79.
8. Wang, X., Brown, C. Comparing AI and teacher feedback in an ESL writing course: Effects on grammar, coherence, and overall writing skills // *Journal of Second Language Writing*. – 2020. – T. 48. – C. 100–116.
9. Lu, X., Law, N. A meta-analysis of studies on the effectiveness of computer-assisted feedback in language learning // *Language Learning & Technology*. – 2012. – T. 16, № 3.
10. Lu, X., Law, F. A study on the effectiveness of teacher and peer feedback on ESL writing // *Language Learning & Technology*. – 2012. – T. 16, № 1. – C. 44–61.

